



# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 2 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	<b>QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI</b> <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	<b>SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI</b> <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	<b>ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH</b> <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	<b>SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI</b> <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	18
5.	<b>MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH</b> <i>Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	21
6.	<b>O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI</b> <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	<b>PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI</b> <i>Yo'ldoshoval Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	<b>BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI</b> <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	<b>O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI</b> <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	<b>QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH</b> <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	<b>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА</b> <i>Муминова Ансора Улдузбек кизи</i>	42
12.	<b>СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ</b> <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улдузбек кизи</i>	45
13.	<b>O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI</b> <i>Madiyev Abbas Nosirovich</i>	50
14.	<b>QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI</b> <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	<b>O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI</b> <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	<b>KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI</b> <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	<b>TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI</b> <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	<b>O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI</b> <i>Kuldashev Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	<b>BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GAROVIDIR</b> <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	<b>MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI</b> <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	<b>A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK</b> <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	<b>IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI</b> <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	<b>XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURSLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI</b> <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	<b>НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА</b> <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	<b>O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI</b> <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	<b>O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI</b> <i>Berdibayev Fayzulla Zariybayevich</i>	95
27.	<b>ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI</b> <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	<b>SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI</b> <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	<b>RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI</b> <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	<b>TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI</b> <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	<b>SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLARI</b> <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	<b>METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLARI</b> <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	<b>AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET</b> <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	<b>UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI</b> <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	<b>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ</b> <i>Ахоров Зариф Орипович</i>	123
36.	<b>RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI</b> <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	<b>SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA</b> <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	<b>TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQUISH BOSQICHLARI</b> <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	<b>RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH</b> <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136

## **“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI**

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



## O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI

Madiyev Abbas Nosirovich

O'zbekiston fermerlar kengashi huzuridagi Fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi bo'lim boshlig'i  
Email:abbosmadiyev@mail.ru

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sug'urtasi bozorining hozirgi holati, mavjud institutsional mexanizmlar, fermerlarni tabiiy-iqlimiy va iqtisodiy xavflardan himoya qilish masalalari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilingan. Qishloq xo'jaligi sug'urtasining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan sug'urta qamrovining pastligi, fermerlar ishonchining yetarli emasligi, raqamli texnologiyalardan foydalanishning sustligi, indeks sug'urta mahsulotlarining keng joriy etilmagani va statistik ma'lumotlar bazasining cheklanganligi asosiy muammolar sifatida ko'rsatildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish, sug'urta badallarini subsidiyalash, qayta sug'urta tizimini rivojlantirish, raqamli monitoring va indeks sug'urta mexanizmlarini joriy etish orqali agrar sektorning moliyaviy barqarorligini oshirish mumkin.

**Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi sug'urtasi, fermer xo'jaligi, indeks sug'urta, iqlim xavfi, davlat-xususiy sheriklik, moliyaviy barqarorlik, oziq-ovqat xavfsizligi.

**Abstract:** The article analyzes the current state of the agricultural insurance market in Uzbekistan, existing institutional mechanisms, and the protection of farmers from natural, climatic and economic risks. The study identifies low insurance coverage, insufficient trust of farmers, weak use of digital technologies, limited development of index-based insurance and insufficient statistical data as key problems. The results show that public-private partnership, premium subsidies, reinsurance mechanisms, digital monitoring and index insurance can improve the financial stability of the agricultural sector.

**Keywords:** agricultural insurance, farming, index insurance, climate risk, public-private partnership, financial stability, food security.

**Абстрактный:** В статье научно-практически анализируется современное состояние рынка сельскохозяйственного страхования в Узбекистане, существующие институциональные механизмы и вопросы защиты фермеров от природно-климатических и экономических рисков. В качестве основных проблем выделены низкий уровень страхования, недостаточное доверие фермеров к страховым организациям, слабое применение цифровых технологий, ограниченное внедрение индексного страхования и недостаточность статистической базы. По результатам исследования обоснована необходимость развития государственно-частного партнерства, субсидирования страховых премий, совершенствования перестрахования, цифрового мониторинга и индексного страхования.

**Ключевые слова:** сельскохозяйственное страхование, фермерское хозяйство, индексное страхование, климатический риск, государственно-частное партнерство, финансовая устойчивость.

### Kirish (Введение/Introduction).

Qishloq xo'jaligi O'zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, u aholining bandligi, oziq-ovqat xavfsizligi va hududiy rivojlanishda muhim o'rin tutadi. Biroq ushbu soha tabiiy ofatlar, qurg'oqchilik, suv tanqisligi, zararkunandalar, hosildorlikning pasayishi va bozor narxlarining o'zgaruvchanligi kabi ko'plab xavflarga duch keladi. Shu sababli qishloq xo'jaligi sug'urtasi fermer va dehqon xo'jaliklari uchun moliyaviy himoya vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo'jaligi sug'urtasi ishlab chiqaruvchilar ko'rishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash va fermerlarning kreditga layoqatligini oshirishga xizmat qiladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, agrar sug'urta faqat tijorat xizmati emas, balki davlat agrar siyosati, oziq-ovqat xavfsizligi va iqlimga moslashuv strategiyasining muhim tarkibiy qismidir.

O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jaligi sug'urtasi bozori hali yetarli darajada rivojlanmagan. Sug'urta mahsulotlarining fermer ehtiyojlariga to'liq moslashmagani, sug'urta to'lovlari jarayonining murakkabligi, ishonchli statistik axborotning cheklanganligi va raqamli texnologiyalarning yetarlicha qo'llanilmasligi mazkur bozorning kengayishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois maqolada qishloq xo'jaligi sug'urtasini rivojlantirishning institutsional mexanizmlari va amaliy takomillashtirish yo'llari yoritiladi.

### Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Literature review, Анализ литературы)

Qishloq xo'jaligi sug'urtasini rivojlantirish so'nggi yillarda agrar iqtisodiyot, moliyaviy barqarorlik va iqlim xavflarini boshqarish

sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu jarayon qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini tabiiy ofatlar, qurg'oqchilik, suv tanqisligi, zararkunandalar, hosildorlik pasayishi va bozor narxlarining o'zgaruvchanligi kabi xavflardan himoya qilishda muhim moliyaviy mexanizm sifatida qaralmoqda.

Ilmiy manbalarda alohida e'tibor qishloq xo'jaligi sug'urtasining risklarni boshqarishdagi o'rniga qaratilgan. Jumladan, O. Mahul va C. Stutley qishloq xo'jaligi sug'urtasini rivojlantirishda davlat ishtiroki, qayta sug'urta tizimi va sug'urta badallarini subsidiyalash mexanizmlari muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar [1]. Ularning fikricha, agrar sohadagi xavflar ko'pincha ommaviy va tizimli xarakterga ega bo'lib, bunday xavflarni faqat xususiy sug'urta kompaniyalari imkoniyatlari hisobidan qoplash qiyin.

Qishloq xo'jaligi sug'urtasida iqlim xavflarini baholash masalasi ham tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. F. Capitanio iqlim o'zgarishi sharoitida qishloq xo'jaligi xavflarini aniq baholash, ob-havo ma'lumotlari va hududiy xavf xaritalaridan foydalanish sug'urta tizimining samaradorligini oshirishini ilmiy asoslab bergan [2]. Muallifning ta'kidlashicha, qurg'oqchilik, kuchli yog'ingarchilik, sovuq urishi yoki suv tanqisligi kabi omillar hosildorlikka bevosita ta'sir etadi.

Raqamli texnologiyalar va indeks sug'urta masalasi ham zamonaviy ilmiy adabiyotlarda muhim o'rin egallaydi. Tadqiqotlarda indeks sug'urta an'anaviy sug'urtadan farqli ravishda zarar miqdorini har bir xo'jalik bo'yicha alohida baholash emas, balki oldindan belgilangan ob-havo yoki hosildorlik ko'rsatkichlari asosida sug'urta to'lovlari amalga oshirish imkonini berishi qayd etiladi [3]. Bunday yondashuv to'lovlarni tezlashtirish, ma'muriy xarajatlarni kamaytirish va fermerlarning sug'urta tizimiga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Fermerlarning moliyaviy savodxonligi va sug'urta mahsulotlari haqidagi xabaridagi ham qishloq xo'jaligi sug'urtasi bozorining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. K. Ashok o'z tadqiqotlarida fermerlar sug'urta shartnomasi, sug'urta hodisasi, qoplama doirasi va to'lov tartibini yetarlicha tushunmasa, sug'urta xizmatlaridan foydalanish darajasi pastligicha qolishini ta'kidlaydi [4].

O'zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham qishloq xo'jaligi sug'urtasini rivojlantirishda institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarurligi qayd etiladi. A. Yadgarov va boshqa tadqiqotchilar sug'urta mahsulotlarining fermerlar ehtiyojlariga yetarlicha moslashmaganligi, ishonchli statistik ma'lumotlar bazasining cheklanganligi va to'lovlar jarayonining murakkabligi asosiy muammolar ekanligini ko'rsatadilar [5].

A. Matthews European Unionning Qishloq xo'jaligi umumiy siyosati (CAP) qishloq xo'jaligi va hududiy rivojlanishga qanday ta'sir qilishi tahlil qilgan. Unda CAP fermer daromadini qo'llab-quvvatlab va qishloq hududlarini rivojlantirsa-da, ayrim tengsizliklar va samaradorlik muammolari mavjudligi ko'rsatib berilgan [6].

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili qishloq xo'jaligi sug'urtasi oddiy moliyaviy xizmat emas, balki agrar siyosat, oziq-ovqat xavfsizligi, iqlimga moslashuv, davlat qo'llab-quvvatlovi va fermerlarning moliyaviy barqarorligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan kompleks institutsional tizim ekanligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot maqsadi va usullari (Research objective and methods, Цель и методы исследования)**

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sug'urtasi bozorining hozirgi holatini tahlil qilish, mavjud institutsional mexanizmlarni baholash va sug'urta bozorini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida taqqoslama tahlil, mantiqiy umumlashtirish, tizimli yondashuv, jadval va grafik tahlil, induktiv va deduktiv fikrlash usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results, Анализ и результаты)**


Qishloq xo'jaligi sug'urtasining asosiy vazifasi fermer xo'jaliklarini kutilmagan xavflar natijasida yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotishlardan himoya qilishdir. Sug'urta qamrovi mavjud bo'lgan xo'jaliklar bank kreditlari bo'yicha nisbatan ishonchli mijozga aylanadi, investitsion faolligi oshadi va ishlab chiqarishdagi uzilishlarni yengib o'tish imkoniyatiga ega bo'ladi.

1-jadval

**Sug'urtaning ahamiyati va mazmuni**

№	Sug'urtaning ahamiyati	Mazmuni
1	Moliyaviy himoya	Tabiiy ofat yoki hosil yo'qotilishi natijasida zararlarning bir qismini qoplash
2	Ishlab chiqarish barqarorligi	Keyingi mavsum uchun mablag' va resurslarni saqlab qolish
3	Kreditga layoqatlilik	Sug'urtalangan xo'jalik banklar uchun ishonchliroq mijoz hisoblanadi
4	Investitsion faollik	Xavflar kamaygani sababli yangi texnologiyalarga sarmoya kiritish imkoniyati ortadi
5	Oziq-ovqat xavfsizligi	Agrar ishlab chiqarishdagi keskin pasayishlarning oldini olishga yordam beradi

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sug'urtasi bozorida bir nechta tizimli muammolar mavjud. Ularning eng muhimlari sug'urta qamrovining pastligi, fermerlarning sug'urta kompaniyalariga ishonchi yetarli emasligi, raqamli texnologiyalardan foydalanishning sustligi, indeks sug'urta mexanizmlarining to'liq shakllanmagani va statistik ma'lumotlarning yetishmasligidir.



1-rasm. Qishloq xo'jaligi sug'urtasi bozorida asosiy muammolar\*[7]

Ushbu muammolar bir-biri bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Masalan, statistik ma'lumotlar yetarli bo'lmasa, sug'urta kompaniyasi xavfni aniq baholay olmaydi. Xavf to'g'ri baholanmasa, sug'urta badali fermer uchun qimmat yoki noqulay bo'lib qoladi. Natijada fermer sug'urtaga ishonmaydi va bozor qamrovi pastligicha qoladi.


Qishloq xo'jaligi sug'urtasining institutsional mexanizmlari bir nechta subyektlarning hamkorligiga tayanadi. Davlat organlari me'yoriy-huquqiy bazani yaratadi, sug'urta kompaniyalari mahsulot ishlab chiqadi, banklar sug'urtalangan xo'jaliklarni moliyalashtirishda qulay shartlar taqdim etadi, ilmiy muassasalar esa xavf xaritalari va prognoz modellarini ishlab chiqadi.

2-jadval

**Qishloq xo'jaligi sug'urtasining institutsional ishtirokchilari va asosiy vazifalari**

Ishtirokchi subyekt	Asosiy vazifasi
Davlat organlari	Huquqiy baza yaratish, subsidiyalar va qayta sug'urta mexanizmlarini qo'llab-quvvatlash
Sug'urta kompaniyalari	Fermerlarga mos mahsulotlar ishlab chiqish va zararlarni qoplash
Fermer xo'jaliklari	Sug'urta shartlarini o'rganish va risklarni boshqarish madaniyatini shakllantirish
Banklar	Sug'urtalangan xo'jaliklarga kredit ajratishda qulay yondashuvni qo'llash
Ilmiy muassasalar	Iqlim xavfi, hosildorlik va zararlar bo'yicha tahliliy modellar ishlab chiqish

Zamonaviy sharoitda indeks sug'urta qishloq xo'jaligi xavflarini boshqarishning istiqbolli vositasi hisoblanadi. Bu usulda sug'urta to'lovi real zarar miqdorini uzoq vaqt ekspertiza qilish orqali emas, balki oldindan belgilangan ob-havo yoki hosildorlik ko'rsatkichlari asosida amalga oshiriladi. Masalan, yog'ingarchilik belgilangan me'yordan kamayib ketsa yoki qurg'oqchilik indeksi xavfli darajaga yetsa, fermerga avtomatik sug'urta to'lovi beriladi.



2-rasm. Indeks sug'urta mexanizmining ishlash tartibi\*[8]

Indeks sug'urtaning afzalligi shundaki, u to'lov jarayonini tezlashtiradi, inson omilini kamaytiradi va fermerning sug'urta tizimiga bo'lgan ishonchini oshiradi. Biroq bu mexanizmi to'liq joriy etish uchun sifatli meteorologik ma'lumotlar, hududiy xavf xaritalari va yagona raqamli platformalar zarur.

**Takomillashtirish bo'yicha takliflar**

birinchidan, qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish va indeks sug'urta mexanizmlarini alohida tartibga solish;

ikkinchidan, kichik fermer va dehqon xo'jaliklari uchun sug'urta badallarining bir qismini davlat tomonidan subsidiyalash;

uchinchidan, sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini oshirish uchun qayta sug'urta tizimini rivojlantirish;

to'rtinchidan, qishloq xo'jaligi ekinlarini sun'iy yo'ldosh, dron, meteorologik stansiyalar va raqamli xaritalar asosida monitoring qilish;

beshinchidan, fermerlar uchun sug'urta savodxonligi bo'yicha o'quv-seminarlar, amaliy treninglar va maslahat xizmatlarini yo'lga qo'yish;

oltinchidan, sug'urta to'lovlarini ko'rib chiqish va amalga oshirish muddatlarini qisqartirish orqali shaffoflikni kuchaytirish.

**Xulosa (Conclusion, Заключение)**

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, qishloq xo'jaligi sug'urtasi O'zbekiston agrar sektorining barqaror rivojlanishi, fermerlarning moliyaviy himoyasi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. Ushbu sug'urta turi tabiiy ofatlar, qurg'oqchilik, suv tanqisligi, zararkunandalar va bozor beqarorligi kabi xavflarning salbiy oqibatlarini kamaytiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sug'urtasi bozorini rivojlantirish uchun faqat yangi sug'urta mahsulotlarini yaratish yetarli emas. Davlat siyosati, xususiy sektor, banklar, fermerlar, ilmiy muassasalar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi uzviy hamkorlikka asoslangan kompleks tizim zarur.

Davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish, sug'urta badallarini subsidiyalash, qayta sug'urta mexanizmlarini rivojlantirish, indeks sug'urta va raqamli monitoring tizimlarini joriy etish orqali qishloq xo'jaligi sug'urtasi bozori yanada samarali va fermerlar uchun qulay shaklga keladi. Bu esa agrar sektorning xavflarga chidamliligini oshirib, mamlakat iqtisodiy barqarorligi va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):**

1. Mahul O., Stutley C. J. Government Support to Agricultural Insurance: Challenges and Options for Developing Countries. World Bank, 2010.
2. Capitanio F. Climate Risk and Agricultural Insurance: Instruments for Resilience in Farming Systems. 2022.
3. The Role of Agricultural Insurance in Ensuring Financial Stability and Climate Resilience in the Agrarian Sector. 2025.
4. Ashok K. Financial Literacy and Agricultural Risk Management among Farmers. 2023.
5. Yadgarov A. va boshqalar. Qishloq xo'jaligi sug'urtasi va iqlim xavflarini boshqarish masalalari. 2024.
6. Matthews A. The Common Agricultural Policy and development //Research handbook on EU agriculture law. – Edward Elgar Publishing, 2015. – C. 485-504.
7. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar.
8. O'zbekiston sug'urta bozori va agrar sektorni rivojlantirishga oid tahliliy materiallar.